



## SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi qisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(66) 235-65-80



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2022-yil**da viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 365,5 mln. AQSh** dollariga yetdi va **2021-yil**ga nisbatan **445,1 mln. AQSh** dollariga yoki **23,2 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022-yil, ming AQSh dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2022- y.: **2 365,5** **+23,2 %**

(2021- y.: **1 920,5**)



### Saldo

2022- y.: **- 1 092,4**  
(2021- y.: **- 857,1**)



### Eksport

2022- y.: **636,6** **+ 19,7 %**

(2021- y.: **531,7**)



Tovarlar: **603,9**



Xizmatlar: **32,7**



### Import

2022- y.: **1 729,0** **+24,5%**

(2021- y.: **1 388,8**)



Tovarlar: **1 726,3**



Xizmatlar: **2,6**

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.













TSAda eksport hajmi **636,6** mln. AQSh dollariga (**19,7 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **1 729,0** mln. AQSh dollariga (**24,5 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **1 092,4** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2022-yil, mln. AQSh dollari va ulushi % da)



<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 541,1</b></p> <p>Eksport: 158,3 Import: 382,8</p> <p> <b>22,9 %</b></p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 373,7</b></p> <p>Eksport: 42,8 Import: 330,9</p> <p> <b>15,8 %</b></p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 357,9</b></p> <p>Eksport: 111,3 Import: 246,5</p> <p> <b>15,1 %</b></p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 181,8</b></p> <p>Eksport: 67,9 Import: 113,9</p> <p> <b>7,7 %</b></p>	<p><b>Tojikiston</b></p> <p><b>TSA – 80,9</b></p> <p>Eksport: 68,6 Import: 12,3</p> <p> <b>3,4 %</b></p>
<p><b>Yaponiya</b></p> <p><b>TSA – 71,3</b></p> <p>Eksport: 0,8 Import: 70,5</p> <p> <b>3,0 %</b></p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p><b>TSA – 58,9</b></p> <p>Eksport: 3,8 Import: 55,1</p> <p> <b>2,5 %</b></p>	<p><b>Sloveniya</b></p> <p><b>TSA – 50,4</b></p> <p>Eksport: 0,0 Import: 50,4</p> <p> <b>2,1 %</b></p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p><b>TSA – 48,3</b></p> <p>Eksport: 0,7 Import: 47,6</p> <p> <b>2,0 %</b></p>	<p><b>Eron</b></p> <p><b>TSA – 43,9</b></p> <p>Eksport: 6,8 Import: 37,1</p> <p> <b>1,9 %</b></p>

Samarqand viloyati jahonning **128** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**22,9** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**15,8** %), Qozog‘istonda (**15,1** %), Turkiyada (**7,7** %), Tojikistonda (**3,4** %), Yaponiyada (**3,0** %) va Germaniyada (**2,5** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, o‘tgan yilda nisbatan TSA Qozog‘iston bilan **47,0** foizga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2022-yil, mln. AQSh dollari)



Tojikiston– 80,9



Qirg‘iz Respublikasi – 41,3



Afg‘oniston– 29,8













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to‘rtta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Tojikiston, Qirg‘iz respublikasi, Afg‘oniston va Ozarboyjon davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **16** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.













## SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2022-yil, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.
 Rossiya Federatsiyasi	<b>242,8</b>	<b>348,3</b>	<b>541,1</b>
<i>Eksport</i>	63,0	111,5	158,3
<i>Import</i>	179,8	236,8	382,8
 Xitoy Xalq Respublikasi	<b>307,7</b>	<b>266,6</b>	<b>373,7</b>
<i>Eksport</i>	44,1	57,1	42,8
<i>Import</i>	263,6	209,5	330,9
 Qozog'iston	<b>146,6</b>	<b>243,5</b>	<b>357,9</b>
<i>Eksport</i>	44,6	61,8	111,3
<i>Import</i>	102,0	181,7	246,6
 Turkiya	<b>133,7</b>	<b>160,1</b>	<b>181,8</b>
<i>Eksport</i>	28,8	47,1	67,9
<i>Import</i>	104,9	113,0	113,9
 Tojikiston	<b>34,6</b>	<b>66,2</b>	<b>80,9</b>
<i>Eksport</i>	32,6	58,8	68,6
<i>Import</i>	2,0	7,4	12,3
 Yaponiya	<b>60,5</b>	<b>88,9</b>	<b>71,3</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,5	0,8
<i>Import</i>	60,3	88,4	70,5
 Germaniya	<b>50,7</b>	<b>53,8</b>	<b>58,9</b>
<i>Eksport</i>	1,6	3,1	3,8
<i>Import</i>	49,7	50,7	55,1
 Sloveniya	<b>37,0</b>	<b>42,8</b>	<b>50,4</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	37,0	42,8	50,4
 Hindiston	<b>31,8</b>	<b>26,0</b>	<b>48,3</b>
<i>Eksport</i>	0,7	0,2	0,7
<i>Import</i>	31,1	25,8	47,6
 Eron	<b>19,4</b>	<b>42,3</b>	<b>43,9</b>
<i>Eksport</i>	3,7	4,4	6,8
<i>Import</i>	15,7	37,8	37,1




Davomi

Davlatlar	2021-y.	2021-y.	2022-y.
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>23,6</b>	<b>40,7</b>	<b>41,3</b>
 <i>Eksport</i>	21,5	39,1	36,5
<i>Import</i>	2,1	1,6	4,8
<b>Litva</b>	<b>27,0</b>	<b>26,6</b>	<b>41,0</b>
 <i>Eksport</i>	2,2	2,4	6,9
<i>Import</i>	24,8	24,2	34,1
<b>Polsha</b>	<b>18,6</b>	<b>13,2</b>	<b>38,8</b>
 <i>Eksport</i>	2,0	5,1	7,4
<i>Import</i>	16,6	8,1	31,4
<b>Belarus Italiya</b>	<b>20,7</b>	<b>17,7</b>	<b>35,1</b>
 <i>Eksport</i>	8,5	8,6	14,3
<i>Import</i>	12,2	9,1	20,8
<b>Ukraina</b>	<b>36,5</b>	<b>82,8</b>	<b>32,7</b>
 <i>Eksport</i>	6,4	12,6	3,8
<i>Import</i>	30,1	70,2	28,9
<b>Latviya</b>	<b>29,7</b>	<b>29,6</b>	<b>32,4</b>
 <i>Eksport</i>	1,3	1,3	1,6
<i>Import</i>	28,4	28,3	30,8
<b>Afg'oniston</b>	<b>16,9</b>	<b>17,6</b>	<b>29,8</b>
 <i>Eksport</i>	16,6	17,2	27,4
<i>Import</i>	0,3	0,4	2,4
<b>Gruziya</b>	<b>20,9</b>	<b>25,3</b>	<b>26,7</b>
 <i>Eksport</i>	3,9	3,9	8,0
<i>Import</i>	17,0	21,4	18,7
<b>Ozarbajjon</b>	<b>13,9</b>	<b>18,8</b>	<b>20,8</b>
 <i>Eksport</i>	13,2	17,9	19,2
<i>Import</i>	0,7	0,9	1,6
<b>Turkmaniston</b>	<b>18,1</b>	<b>22,9</b>	<b>17,6</b>
 <i>Eksport</i>	4,6	3,2	5,3
<i>Import</i>	13,5	19,7	12,3



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022-yil 2022-yil)<sup>1</sup>

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 365,5</b>	<b>123,2</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	1 219,5	129,1	51,6
Kattaqo'rg'on shahri	27,7	108,3	1,2
tumanlar:			
Oqdaryo	47,9	98,6	2,0
Bulung'ur	23,2	91,1	1,0
Jomboy	253,5	117,4	10,7
Ishtixon	30,6	124,0	1,3
Kattaqo'rg'on	39,4	197,7	1,7
Qo'shrabot	7,9	181,0	0,3
Narpay	26,9	123,0	1,1
Payariq	17,3	103,1	0,7
Pastdarg'om	75,4	136,4	3,2
Paxtachi	21,8	101,8	0,9
Samarqand	195,7	115,2	8,3
Nurobod	19,9	51,9	0,8
Urgut	187,4	121,0	7,9
Toyloq	171,4	131,4	7,2

Eng yuqori hajm,  
mln AQSh dollari



Samarqand sh. 1 219,5

Jomboy 253,5

Samarqand t. 195,7

Eng quyi hajm,  
mln AQSh dollari



Nurobod 19,9


Payariq 17,3

Qo'shrabot 7,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **51,6 %** ulush bilan **1 219,5** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3 %** ulush bilan **7,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

<sup>1</sup> Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022-yil, mln. AQSh dollarida)



2022-yilningda, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **47,9** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021-yilning mos davriga nisbatan ulushi **3,9** %ga ko'paygan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2022-yilda 2021-yilning mos davriga nisbatan **3,9** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **52,1** % ni tashkil etdi.



Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022-yil holatiga ko'ra, **1 131,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **420,3** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **711,6** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



## SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022-yil, mln. AQSh dollari)

### Rossiya

TSA – 541,1  
Eksport – 158,3  
Import – 382,8



### Qozog'iston

TSA – 357,9  
Eksport – 111,3  
Import – 246,6



### Tojikiston

TSA – 80,9  
Eksport – 68,6  
Import – 12,3



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 41,3  
Eksport – 36,5  
Import – 4,8



### Belarus Respublikasi

TSA – 35,1  
Eksport – 14,3  
Import – 20,8



### Ukraina

TSA – 32,7  
Eksport – 3,8  
Import – 28,9



### Ozarbajjon

TSA – 20,8  
Eksport – 19,2  
Import – 1,6



### Turkmaniston

TSA – 17,6  
Eksport – 5,3  
Import – 12,3



### Moldova

TSA – 2,8  
Eksport – 1,8  
Import – 1,0



### Armaniston


TSA – 1,8  
Eksport – 1,1  
Import – 0,7




Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**47,8 %**), Qozog'iston (**31,6 %**) hamda Tojikiston (**7,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022-yil, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **977,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **321,6** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **655,6** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **698** taga yetdi va ular tomonidan **636,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2021-yilning mos davriga nisbatan **19,7 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST<sup>1</sup> BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022-yil 2022-yil, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2022-yil, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami eksport</b>	<b>531,7</b>	<b>636,6</b>	<b>158,6</b>	<b>119,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	181,0	229,7	119,0	126,9	34,0	36,1
Ichimliklar va tamaki	4,2	7,1	2,4 m.	168,0	0,8	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,3	25,2	138,6	86,1	5,5	4,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	5,1	145,8	6,9 m.	0,1	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	12,7	5,0	41,4 m.	0,1	2,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	30,2	20,4	6,9 m.	67,5	5,7	3,2
Sanoat tovarlari	167,6	207,0	2,2 m.	123,5	31,5	32,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	49,6	47,2	169,3	95,1	9,3	7,4
Turli xil tayyor buyumlar	41,3	49,5	132,8	119,9	7,8	7,8
Xizmatlar	27,4	32,7	2,2 m.	119,2	5,2	5,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **94,9 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,1 %**), sanoat tovarlari (**32,5 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**7,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2022-yil 2022-yil)




XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2021-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	175,9	134,9
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	32,6	97,8
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	12,3	165,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	7,1	168,1
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	17,0	79,0
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	5,9	89,2
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3,1	4,2 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	12,7	41,4 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar	1,5	79,1
Tibbiyot va farmatseftika mahsulotlari	1,5	107,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	16,6	65,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,2	120,2

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2021-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	116,5	98,3
Cho'yan va po'lat	61,4	2,3 m.
Rangli metal	15,1	4,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan ruda bo'lmagan mahsulotlar	10,4	138,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Avtomobillar	38,4	85,8
Boshqa joyda tasniflanmagan elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	4,3	3,3 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar va ularning ehtiyot qismlari	1,9	2,8 m.
Aniq sohalar uchun maxsus bo'lgan mashinalar va uskunalar	2,1	115,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	41,4	125,1
Poyafzal	7,1	92,6
Boshqa joyda tasniflanmagan turli xil tayyor buyumlar	0,7	2,9 m.
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	7,8	63,2
Turizm xizmatlari	9,2	478,2

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2022-yilningda MDH mamlakatlariga **420,3** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **66,0** %ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (2022-yil, mln. AQSh dollarida)



2022-yil yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **24,9** %) va Qozog'iston (**17,5** %) davlatlari yetakchilik qildi. Quyidagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **80,6** %ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022-yil, % da)






## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022-yil, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Rossiya Federatsiyasi	111,5	158,3	177,0	142,0	1	1
Qozog'iston	61,8	111,3	138,4	180,1	2	2
Tojikiston	58,8	68,6	180,3	116,6	3	3
Turkiya	47,2	67,9	163,6	144,1	5	4
Xitoy Xalq Respublikasi	57,1	42,8	129,4	75,0	4	5
Qirg'iz Respublikasi	39,1	36,5	182,0	93,4	6	6
Afg'oniston	17,2	27,4	103,4	159,4	9	7
Ozarbajjon	17,9	19,2	135,6	107,0	8	8
Belarus Respublikasi	8,6	14,3	101,9	165,8	12	9
Gruziya	3,9	8,0	98,1	208,9	16	10
Polsha	5,1	7,4	258,5	146,0	13	11
Litva	2,4	6,9	110,4	291,1	23	12
Eron	4,4	6,8	118,9	154,8	14	13
Singapur	33,3	6,4	302,2	19,3	7	14
Italiya	9,6	6,3	1 587,6	65,2	11	15
AQSh	3,9	5,8	136,9	150,1	15	16
Turkmaniston	3,2	5,3	69,5	164,3	20	17
Ukraina	12,6	3,8	198,4	30,4	10	18
Germaniya	3,1	3,8	194,6	124,3	21	19
BAA	3,3	3,6	70,6	107,3	19	20





## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022-yil)<sup>1</sup>

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>636,6</b>	<b>119,7</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	248,1	132,5	39,0
Kattaqo'rg'on shahri	16,6	176,1	2,6
tumanlar:			
Oqdaryo	27,8	112,2	4,4
Bulung'ur	16,5	112,5	2,6
Jomboy	62,0	101,4	9,7
Ishtixon	21,6	129,8	3,4
Kattaqo'rg'on	14,9	126,6	2,3
Qo'shrabot	3,2	133,1	0,5
Narpay	21,2	134,9	3,3
Payariq	12,6	107,2	2,0
Pastdarg'om	17,4	89,9	2,7
Paxtachi	16,5	104,7	2,6
Samarqand	73,0	156,5	11,5
Nurobod	0,6	7,8	0,1
Urgut	57,4	94,7	9,0
Toyloq	27,1	106,8	4,3

Eng yuqori hajm,  
mln AQSh dollari



Samarqand sh. 248,1

Samarqand t. 73,0

Jomboy t. 62,0

Eng quyi hajm,  
mln AQSh dollari



Payariq t. 12,6

Qo'shrabot t. 3,2

Nurobod t. 0,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **39,0 %** ulush bilan **248,1** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani **0,1 %** ulush bilan **0,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

<sup>1</sup> Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2022-yilda **204,6** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan **37,5** mln AQSh dollariga yoki **56,1** ming tonnaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**30,3** %), XXR (**12,8** %), Qozog'iston (**11,1** %), hamda Turkiya (**8,1** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **161,2 mln.** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan **30,4** %ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **25,3** %ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022-yil, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum yangi uzilgan</b></p> <p>60,3 mln. AQSh dollari</p> <p>60,3 ming tonna</p> <p> 49,3 % ↑</p>	<p><b>Meva va rezavorlar</b></p> <p>40,9 mln. AQSh dollari</p> <p>39,0 ming tonna</p> <p> 19,9 % ↑</p>	<p><b>Qalampir</b></p> <p>1,7 mln. AQSh dollari</p> <p>0,7 ming tonna</p> <p> 48,6 % ↓</p>	<p><b>Sabzavotlar</b></p> <p>50,6 mln. AQSh dollari</p> <p>91,2 ming tonna</p> <p> 30,1 % ↑</p>
<p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p>39,0 mln. AQSh dollari</p> <p>33,2 ming tonna</p> <p> 30,0 % ↑</p>	<p><b>Kartoshka</b></p> <p>0,0 mln. AQSh dollari</p> <p>0,0 ming tonna</p> <p> 0,0 % ↓</p>	<p><b>Yeryong'oq</b></p> <p>5,5 mln. AQSh dollari</p> <p>4,5 ming tonna</p> <p> 88,7 % ↓</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>2,2 mln. AQSh dollari</p> <p>8,8 ming tonna</p> <p> 2,7 m. ↑</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022-yil 2022-yil)

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, % da <sup>1</sup>
 Rossiya Federatsiyasi	54,5	48,8	30,3
 Xitoy Xalq Respublikasi	23,7	20,7	12,8
 Qozog'iston	53,7	17,9	11,1
 Turkiya	10,5	13,0	8,1
 Belarus Respublikasi	11,6	12,1	7,5
 Ozarbayjon	6,7	9,5	5,9
 Gruzija	7,7	5,7	3,5
 Eron	3,1	3,2	2,0
 Ukraina	3,8	3,0	1,9
 Litva	1,5	2,7	1,7
 Pokiston	8,5	2,7	1,7
 BAA	2,4	2,6	1,6
 AQSH	0,8	2,3	1,4
 Germaniya	0,8	2,2	1,3
 Turkmaniston	2,7	2,2	1,3
 Boshqa davlatlar	<b>12,7</b>	<b>12,8</b>	<b>7,9</b>

<sup>1</sup> qiymat ifodasidan



2022-yilda meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **30,3%**i), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **17,4%**ga ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.







To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2022-yil yakuni bo'yicha **160,2 mln.** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **25,2 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **3,4 %** ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**25,7 %**), Paxtadan yigirilgan ip (**34,5 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **145** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **29** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(2022-yil, mln. AQSh dollari)

		2021-yil	2022-yil
<b>Jami</b>		<b>155,0</b>	<b>160,2</b>
	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	31,5	41,2
	Gilamlar	32,2	23,8
	Ipak va ipak mahsulotlari	13,6	17,5
	Naqshli mato	10,1	8,8
	Paxtadan yigirilgan ip	53,8	55,3
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	13,7	13,6

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (2022-yil, ming AQSh dollari)



	2021-yil	2022-yil	Ulushi , % da
 Rossiya Federatsiyasi	32,5	45,8	28,6
 Turkiya	22,8	34,9	21,8
 Xitoy Xalq Respublikasi	34,3	20,1	12,6
 Qirg‘iz Respublikasi	21,2	16,8	10,5
 Tojikiston	4,1	13,1	8,2
 Italiya	8,9	5,6	3,5
 Ozarbayjon	7,1	5,3	3,3
 Afg‘oniston	3,2	3,6	2,2
 Qozog‘iston	2,7	2,9	1,8
 Polsha	2,5	2,4	1,5
 Eron	1,4	2,0	1,2
 Germaniya	0,1	1,2	0,8
 Moldava Respublikasi	0,6	1,1	0,7
 Chehiya Respublikasi	0,1	0,7	0,4
 Boshqa davlatlar	13,5	4,8	3,0



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlar to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (**45,8** mln. AQSh dollari – **28,6** %) va Turkiya (**34,9** mln. AQSh dollari – **21,8** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022-yil, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **32,7** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **5,1** % ini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **119,2** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) xizmatlari (**28,9** %), transport xizmatlari (**23,7** %), moliyaviy xizmatlar (**22,7** %) va qurilish xizmatlari (**3,7** %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga boshqa ish bilan bo'g'liq xizmatlar (**11,1** %), boshqa xizmatlar (**3,7** %) hissasiga to'g'ri keldi.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI




2022-yilda import hajmi **1 729,0** mln. AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan **124,5 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush sanoat tovarlari (**26,9 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**26,2 %**) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**25,7 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022-yil, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022-yilningda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriganis batan **339,1** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **1 726,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **2,6** mln. AQSh dollariga yetdi.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (2022-yil, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami import</b>	<b>1 388,8</b>	<b>1 729,0</b>	<b>120,1</b>	<b>124,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	151,4	175,1	152,6	115,6	10,9	10,1
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,1	177,4	26,2	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	49,3	78,2	101,3	158,8	3,5	4,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	36,7	36,3	158,4	98,8	2,6	2,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	26,2	33,8	132,3	129,1	1,9	2,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	394,8	443,6	121,5	112,4	28,4	25,7
Sanoat tovarlari	283,4	464,9	128,8	164,1	20,4	26,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	413,4	452,2	107,9	109,4	29,8	26,2
Turli xil tayyor buyumlar	31,7	42,0	90,7	132,5	2,3	2,4
Xizmatlar	1,6	2,6	70,4	163,9	0,1	0,2





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022-yil 2022-yil)


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2021-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	43,7	98,1
Hayvonlar uchun ozuqalar	46,7	93,8
Meva va sabzavotlar	19,0	100,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	26,5	3,9 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,1	26,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	38,0	2,3 m.
Probka va yog'och-taxtalar	18,9	132,1
Tabiiy kauchik	7,5	103,4
Boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo mahsulotlari	6,8	147,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	33,5	97,7
Ko'mir, koks va briketlar	2,7	112,3
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	32,7	127,8
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	1,2	191,8
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	296,1	105,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	67,5	130,3
Bo'yoqlar va bo'yoq mahsulotlari	20,0	208,4
Organik kimyo moddalari	23,0	109,8

XSST bo'limi nomi	ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	283,7	178,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	65,1	127,2
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	27,2	161,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	34,4	173,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	66,7	115,9
Avtomobillar	185,0	90,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	145,2	128,0
Boshqa joyda tasniflanmagan elektrik mashinalari	21,8	129,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	15,2	147,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	11,8	169,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	8,1	74,6
Mebel va uning mahsulotlari	4,2	3,1 m.
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmati	2,5	176,2
Safar (turizm) xizmati	0,1	3,4 m.



2022-yil yakuniga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **41,1** %ni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **3,1** %ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (2022-yil, mln. AQSh dollarida)



2022-yilda Samarqand Viloyati **86** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Germaniya va Sloveniya) jami importning **72,3** % ulushini tashkil etdi.



## VILOTAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022-yil 2022-yil, % da)






## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022-yil, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	236,9	382,8	131,8	161,6	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	209,5	330,9	79,5	158,0	2	2
Qozog'iston	181,7	246,5	178,2	135,7	3	3
Turkiya	113,0	113,9	107,7	100,8	4	4
Yaponiya	88,4	70,5	146,6	79,7	5	5
Germaniya	50,7	55,1	103,2	108,6	7	6
Sloveniya	42,8	50,4	115,7	117,7	8	7
Hindiston	25,8	47,6	82,7	184,7	12	8
Eron	37,8	37,1	241,7	97,9	9	9
Litva	24,2	34,1	97,3	140,9	13	10
Polsha	8,1	31,4	48,8	387,0	28	11
Latviya	28,4	30,8	99,8	108,6	11	12
Ukraina	70,2	28,8	232,6	41,1	6	13
Belarus Respublikasi	9,0	20,8	73,9	230,1	24	14
Gruziya	21,5	18,7	126,5	86,9	14	15
Bangladesh	13,1	16,0	123,9	122,7	18	16
Vengriya	34,0	16,0	123,9	46,9	10	17
Niderlandiya	12,5	15,5	91,5	123,9	20	18
Sveytsariya	2,4	14,9	147,5	631,7	37	19
Belgiya	8,9	13,9	121,1	155,5	25	20



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022-yil 2022-yil)

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 729,0</b>	<b>124,5</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	971,4	128,3	54,7
Kattaqo'rg'on shahri	11,1	68,6	0,7
tumanlar:			
Oqdaryo	20,1	84,4	1,2
Bulung'ur	6,7	61,9	0,4
Jomboy	191,5	123,7	11,1
Ishtixon	9,0	111,9	0,5
Kattaqo'rg'on	24,5	3,0 m.	1,4
Qo'shrabot	4,7	2,4 m.	0,3
Narpay	5,7	92,9	0,3
Payariq	4,7	93,7	0,3
Pastdarg'om	58,0	161,4	3,4
Paxtachi	5,2	93,5	0,3
Samarqand	122,7	99,5	7,1
Nurobod	19,2	64,2	1,1
Urgut	130,0	138,0	7,5
Toyloq	144,4	137,3	8,4

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Samarqand sh. 971,4

Jomboy 191,5

Toyloq 144,4

Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari



Paxtachi 5,2


Payariq 4,7

Qo'shrabot 4,7

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **54,7 %** ulush bilan **1 729,0** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3 %** ulush bilan **4,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022-yil 2022-yil, ulushi, % da)



2022-yilning yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **2,6** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **63,9** %ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**94,7** %), boshqa safarlar (turizm) xizmatlari (**1,9** %), Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**1,6** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**1,8** %) ga tegishli bo'ldi.



Xizmatlar importida eng yuqori hajm **2,5** mln. AQSh dollarini yoki **94,7** % ini tashkil etgan bolsa, qolgan **5,3** % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2022-yilda import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **452,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning shu davriga nisbatan **9,4** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **26,2** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022-yil)




2022-yilda mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **38,9** mln. AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Samarqand Viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **167,5** mln. AQSh dollari (**37,0** %), Yaponiya — **69,6** mln. AQSh dollari (**15,4** %) va Rossiya Federatsiyasi — **48,2** mln. AQSh dollari (**10,6** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2022-yilda import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **464,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **64,1** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **26,9** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2022-yil, ulushi, % da)

**174,1 mln. AQSh doll.**  
ulushi – **37,4** %

 **Rossiya Federasiyasi**

**99,5 mln. AQSh doll.**  
ulushi – **21,4** %

 **Qozog`iston**

**90,0 mln. AQSh doll.**  
ulushi – **19,4** %

 **XXR**

**36,9 mln. AQSh doll.**  
ulushi – **7,9** %

 **Turkiya**

**15,8 mln. AQSh doll.**  
ulushi – **3,4** %

 **Bangladesh**



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**283,7** mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**65,1** mln. AQSh dollari), rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**34,4** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**27,2** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Тел. 66-235-65-80